



**“TRASTBANK” XUSUSIY AKSIYADORLIK BANKI
BANK OPERASIYALARI METODOLOGIYASI BOSHQARMASIDA
RO’YXATDAN O’TKAZILDI**

**2020 yil 25 fevral
552-son**

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki
aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining**

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki taftish komissiyasi
(taftishchisi) to‘g‘risida nizom”ni tasdiqlash haqida”**

QARORI



**“TRASTBANK” XUSUSIY AKSIYADORLIK BANKI
AKSIYADORLARI UMUMIY YIG‘ILISHI
Q A R O R I**

**““Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankingin
kuzatuv kengashi to‘g‘risida nizom”ni
yangi tahrirda tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2000 yil 22 fevraldagagi 3/6-son qarori (2000 yil 5 aprel, ro‘yxat raqami 916) bilan tasdiqlangan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlariiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida nizom”ga muvofiq “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi **qaror qiladi**:

1. “Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankingin kuzatuv kengashi to‘g‘risida nizom yangi tahrirda ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin:
 - a) “Trastbank” xususiy aksiyadorlik birja banki aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi-ning 2014 yil 19 iyundagi 37-son ““Trastbank” xususiy aksiyadorlik birja banki kengashi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida” qarori (2014 yil 31 iyul, ro‘yxat raqami 299);
 - b) “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishining 2015 yil 3 iyundagi 39-son ““Trastbank” xususiy aksiyadorlik birja banki kengashi to‘g‘risida nizom”ga o‘zgartirish kiritish haqida” qarori (2015 yil 8 iyul, ro‘yxat raqami 299-1);
 - v) “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishining 2016 yil 10 iyundagi 42-son ““Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki kengashi to‘g‘risida nizom”ga qo‘sishma va o‘zgartirishlar kiritish haqida” qarori (2016 yil 14 iyun, ro‘yxat raqami 299-2);
 - g) “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishining 2017 yil 30 avgustdagi 44-son ““Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki kengashi to‘g‘risida nizom”ga o‘zgartirish kiritish haqida” qarori (2017 yil 31 avgust, ro‘yxat raqami 299-3);
 - d) “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishining 2018 yil 7 iyundagi 46-son ““Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki kengashi to‘g‘risida nizom”ga qo‘sishma kiritish haqida” qarori (2018 yil 12 iyun, ro‘yxat raqami 299-4);
 - e) “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishining 2019 yil 10 iyundagi 48-son ““Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki kengashi to‘g‘risida nizom”ga qo‘sishma va o‘zgartirishlar kiritish haqida” qarori (2019 yil 17 iyun, ro‘yxat raqami 299-5).
3. Mazkur qaror Bank ichki normativ hujjatlari reestridera ro‘yxatdan o‘tkazilgan kunning ertasidan boshlab kuchga kiradi.

Aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi raisi

T.Sharipov

Toshkent shahri,
2020 yil 24 fevral,
50-son.



**“TRASTBANK” XUSUSIY AKSIYADORLIK BANKI
AKSIYADORLARI UMUMIY YIG‘ILISHI
Q A R O R I**

**““Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki
taftish komissiyasi (taftishchisi) to‘g‘risida nizom”ni
yangi tahrirda tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2000 yil 22 fevraldagи 3/6-son qarori (2000 yil 5 aprel, ro‘yxat raqami 916) bilan tasdiqlangan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlariiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida nizom”ga muvofiq “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi **qaror qiladi**:

1. “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki taftish komissiyasi (taftishchisi) to‘g‘risida nizom yangi tahrirda ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin:
 - a) “Trastbank” xususiy aksiyadorlik birja banki aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi-ning 2014 yil 19 iyundagi 37-son ““Trastbank” xususiy aksiyadorlik birja banki taftish komissiyasi (taftishchisi) to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida” qarori (2014 yil 31 iyul, ro‘yxat raqami 300);
 - b) “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishining 2015 yil 3 iyundagi 39-son ““Trastbank” xususiy aksiyadorlik birja banki taftish komissiyasi (taftishchisi) to‘g‘risida nizom”ga o‘zgartirish kiritish haqida” qarori (2015 yil 8 iyul, ro‘yxat raqami 300-1).
3. Mazkur qaror Bank ichki normativ hujjatlari reestrida ro‘yxatdan o‘tkazilgan kunning ertasidan boshlab kuchga kiradi.

Aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi raisi

T.Sharipov

Toshkent shahri,
2020 yil 24 fevral,
550-son.

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki
aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishining
2020 yil 24 fevraldagisi 50-son qaroriga
ILOVA

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki
taftish komissiyasi (taftishchisi) to‘g‘risida nizom**
(yangi tahriri)

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” qonunlari asosida ishlab chiqildi va u “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki (keyingi o‘rinlarda – Bank) taftish komissiyasining (taftishchisining) maqomi, tarkibi, funksiya va vakolatlari, ishslash tartibi, Bankning boshqa boshqarish organlari bilan o‘zaro munosabatini, shuningdek a’zolarining huquqi, majburiyati va javobgarligini belgilaydi.

1-§. Umumiy qoidalar

1. Bank taftish komissiyasi (taftishchisi) Bankning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.
2. Bank taftish komissiyasi (taftishchisi) o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Bank ustavi, Bank aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi qarorlari, mazkur Nizom va Bankning boshqa ichki normativ hujjatlariga amal qiladi.

2-§. Bank taftish komissiyasini (taftishchisini) saylash

3. Bank aksiyadorlari umumiyligi yillik yig‘ilishi Bank moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish uchun aksiyadorlar yoki ularning vakillari ichidan miqdor tarkibi uch nafargacha bo‘lgan Bank taftish komissiyasini yoki taftishchisini bir yil muddatga saylaydi.

Ayni bir shaxs Bank taftish komissiyasi tarkibiga (taftishchisi sifatida) ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

Bank taftish komissiyasi a’zolari (taftishchisi) bir vaqtning o‘zida Bank kuzatuv kengashining a’zosi bo‘lishi, shuningdek ayni shu Bankda mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlashi mumkin emas.

4. Bank taftish komissiyasining (taftishchisining) vakolati muddati uning Bank aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishida saylangan paytdan keyingi Bank aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishida saylanish (qayta saylanish) paytigacha hisoblanadi.

5. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo‘lib kamida bir foiziga ega bo‘lgan aksiyador (aksiyadorlar) Bank aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi chaqirilishidan 10 kun oldin Bank taftish komissiyasiga (taftishchisiga), ushbu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda, nomzodlar ko‘rsatishga haqli.

6. Bank taftish komissiyasiga (taftishchisiga) nomzod ko'rsatish bo'yicha taklif yozma ravishda kiritiladi.

Nomzod ko'rsatishga oid yozma taklifga nomzod to'g'risida ma'lumotnomha ilova qilinadi.

Agar taklif aksiyador-yuridik shaxs tomonidan ko'rsatilgan bo'lsa, o'z ustaviga asosan ishonchnomasiz harakat qilayotgan ushbu yuridik shaxs vakilining imzosi yuridik shaxs muhri bilan tasdiqlanadi. Agar nomzod ko'rsatishga oid taklifni yuridik shaxs nomidan ishonchnoma asosida harakat qilayotgan vakil imzolangan bo'lsa, unga ishonchnoma ilova qilinadi.

7. Bank taftish komissiyasiga (taftishchisiga) nomzod ko'rsatish (shu jumladan o'zining nomzodini o'zi ko'rsatish) to'g'risida taklif kiritilganda quyidagilar ko'rsatiladi:

a) nomzodning familiyasi, ismi va otasining ismi, unga tegishli aksiyalarning soni va turi (basharti nomzod Bank aksiyadori bo'lsa);

b) nomzodni ko'rsatgan aksiyadorlarning familiyasi, ismi va otasining ismi (aksiyador yuridik shaxs bo'lgan holda, uning nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi.

8. Bank taftish komissiyasiga (taftishchisiga) taklif etilgan nomzodning ovoz berish uchun tuzilgan nomzodlar ro'yxatiga kiritilishiga, quyidagi hollarda, Bankning kuzatuv kengashi tomonidan rad etish qarori qabul qilinishi mumkin:

a) aksiyador (aksiyadorlar) mazkur Nizomning 5-bandida belgilangan muddatga rioya etmagan bo'lsa;

b) aksiyador (aksiyadorlar) mazkur Nizomning 5-bandida nazarda tutilgan miqdordagi Bank ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo'lmasa;

v) mazkur Nizomning 6-bandini ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma'lumotlar to'liq bo'lmasa;

g) takliflar O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatları" va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" qonuni yoki Bank ustavi talablariga muvofiq bo'lmasa.

9. Bank kuzatuv kengashining Bank taftish komissiyasi a'zoligiga (taftishchisiga) nomzodni ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risida qarori ustidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq sudga shikoyat qilish mumkin.

10. Bank taftish komissiyasi a'zoligiga (taftishchisiga) nomzodlarga ovoz berish har bir nomzod bo'yicha alohida o'tkaziladi. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Bank taftish komissiyasi a'zoligiga (taftishchisiga) saylangan deb hisoblanadi.

11. Bank taftish komissiyasi a'zosi (taftishchisi) o'z xohishiga ko'ra uning tarkibidan istalgan paytda chiqishga haqli, bu haqda u komissiya raisi va Bankning kuzatuv kengashini faoliyatini to'xtatishidan bir oy oldin yozma xabardor qilishi lozim.

Bank taftish komissiyasi a'zosining (taftishchisining) vakolatlari, agar u Bank kuzatuv kengashiga kiritilsa, shuningdek, Bankning boshqa boshqarish organlaridan birida biron-bir

mansabni egallasa, o‘z-o‘zidan to‘xtatiladi.

Bank taftish komissiyasi a’zosi (taftishchisi) o‘z funksiyalarini jismonan bajarishi mumkin bo‘lмаган hollarda (o‘lim, bedarak yo‘qolgan deb tan olinganda, o‘lgan deb e’lon qilinganda), uning vakolatlari muddatidan ilgari to‘xtatiladi.

Bank taftish komissiyasini ayrim a’zolari yoki barcha a’zolarining (taftishchisining) vakolatlari Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi qaroriga asosan quyidagi hollarda muddatidan oldin bekor qilinadi:

- a) olti oy davomida taftishchi sifatida o‘z faoliyatini yuritmasligi;
- b) tekshirish paytida taftish predmetiga daxldor bo‘lgan hujjat va materiallarni to‘liq o‘rganib chiqmaganligi oqibatida Bank taftish komissiyasi (taftishchisi) tomonidan noto‘g‘ri xulosa taqdim etilishi;
- v) mazkur Nizomning 27-bandi talablari bajarilmasligi;
- g) sodir etilgan boshqa faoliyatning (faoliyat ko‘rsatmaslikning) Bank uchun salbiy asoratlarga olib kelishi.

12. Bank taftish komissiyasi a’zosining (taftishchisining) vakolatlari muddatidan oldin bekor qilinganda Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida Bank taftish komissiyasi a’zosi (taftishchisi) almashtiriladi.

Bank taftish komissiyasi a’zosining (taftishchisining) vakolatlari muddatidan oldin bekor qilinganda yangi saylangan Bank taftish komissiyasi a’zosining (taftishchisining) vakolotlari Bank aksiyadorlari umumiy hisobot yig‘ilishi tomonidan Bank taftish komissiyasi (taftishchisi) saylanishi (qayta saylanishi) paytigacha amal qiladi.

3-§. Bank taftish komissiyasining (taftishchisining) vakolatlari va ishslash tartibi

13. Bank taftish komissiyasi (taftishchisi) Bank moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshiradi va nazorat qiladi.

14. Bank taftish komissiyasi (taftishchisi) Bank moliya-xo‘jalik faoliyatini rejaga ko‘ra bir yillik ish yakunlari bo‘yicha taftish qiladi.

15. Bank taftish komissiyasi (taftishchisi) taftishni Bankda yuritiladigan hisobot va hujjatlarga asoslangan holda amalga oshiradi.

16. Bank taftish komissiyasi (taftishchisi) o‘z funksiyalarini bajarishda quyidagilarni amalga oshiradi:

- a) soliq va statistika organlariga yil davomida topshirilgan Bank hisobotlarini o‘rganish;
- b) Bankning yillik buxgalteriya balansi hamda foyda va zarar to‘g‘risida hisobotini o‘rganish;
- v) Bank moliyaviy-xo‘jalik faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida

belgilangan norma va qoidalarga rioya qilinishini tekshirish;

g) Bankda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar va yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek bunday bitimlarni tuzishda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Bank ichki normativ hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish.

17. Taftish natijalari Bank taftish komissiyasi (taftishchisi) tomonidan tuzilgan dalolatnomaga bilan rasmiylashtiriladi, unda aniqlangan kamchiliklar ko‘rsatilishi, aniq faktlar va qonunbuzarlikka yo‘l qo‘ygan xodimlarning kirdikorlari bayon qilinishi, birlamchi va hisob hujjatlariga havolalar bo‘lishi, aniqlangan kamchilik, qonunbuzarlik va suiiste’mol qilishning sababi aks ettirilishi lozim. Dalolatnomaga Bankning rahbar xodimlari va boshqa xodimlarining tushuntirish xatlari ilova qilinadi.

18. Bank taftish komissiyasi (taftishchisi) Bank aksiyadorlari umumiyligida yillik yig‘ilishiga Bank moliya-xo‘jalik faoliyati taftishi yakunlari yuzasidan xulosa taqdim etadi, bu xulosada quyidagilar ko‘rsatilishi shart:

a) Bank hisobotlari va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko‘rsatilgan ma’lumot-larning ishonchlilikiga berilgan baho;

b) buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya-xo‘jalik faoliyati amalga oshirilayotganda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to‘g‘risida axborot.

19. Bank taftish komissiyasi (taftishchisi) Bankda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar va yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek bunday bitimlarni tuzishda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Bank ichki normativ hujjatlariga rioya qilinishi to‘g‘risida xulosani har chorakda Bank kuzatuv kengashining majlisiga olib chiqadi.

20. Bank moliya-xo‘jalik faoliyatini boshqa davr ichidagi ish yakunlari bo‘yicha taftish qilish (keyingi o‘rinlarda – rejadan tashqari taftish qilish) quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

a) Bank taftish komissiyasining (taftishchisining) tashabbusiga ko‘ra;

b) Bank aksiyadorlari umumiyligida yig‘ilishining talabiga binoan;

v) Bank kuzatuv kengashining tashabbusiga ko‘ra;

g) Bank ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo‘lib kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) tomonidan, Bankning kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo‘li bilan, qo‘yilgan talab bo‘yicha.

21. Rejadan tashqari taftish o‘tkazish tashabbusi bilan chiqqan aksiyador (aksiyadorlar) talabnomasida quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim:

a) aksiyadorning (aksiyadorlarning) familiyasi, ismi va otasining ismi (yuridik shaxs uchun firma nomi);

b) aksiyadorga (aksiyadorlarga) tegishli bo‘lgan aksiyalar to‘g‘risida ma’lumot (aksiya

soni, turi);

v) ushbu talabnomaning mohiyatan asoslanishi.

22. Talabnoma aksiyador yoki uning ishonchli vakili tomonidan imzolanadi. Agar talabnoma ishonchli vakil tomonidan imzolansa, talabnomaga O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida rasmiylashtirilgan ishonchnoma ilova qilinadi.

Agar tashabbus aksiyador-yuridik shaxs tomonidan ko‘rsatilgan bo‘lsa, uning ustaviga muvofiq ishonchnomasiz harakat qilayotgan yuridik shaxsning ishonchli vakili imzosi ushbu yuridik shaxs muhri bilan tasdiqlanadi. Agar talabnoma yuridik shaxs bergan ishonchnoma asosida imzolangan bo‘lsa, unda talabnomaga ishonchnoma ilova qilinadi.

23. Talabnoma yuzasidan Bankning kuzatuv kengashi 10 (o‘n) ish kuni ichida Bank moliya-xo‘jalik faoliyatini rejadan tashqari taftish qilish to‘g‘risida qaror qabul qilishi yoki taftish o‘tkazishni asosli ravishda rad etishi lozim.

Bankning kuzatuv kengashi quyidagi hollarda Bank moliya-xo‘jalik faoliyatini rejadan tashqari taftish qilishni rad etishi mumkin:

a) talabnoma taqdim etgan aksiyador (aksiyadorlar) buning uchun zarur miqdorda aksiyaga ega bo‘lmasa;

b) talabnoma taqdim etgan aksiyador (aksiyadorlar) aksiyadorlar reestrida ro‘yxatdan o‘tmagan shaxslar bo‘lishsa va/yoki aksiyadorlarning tegishli vakolatiga ega bo‘lishmasa;

v) talabnomada ma’lumotlar to‘liq ko‘rsatilmagan bo‘lsa.

Bank faoliyatini rejadan tashqari taftish qilish tashabbusi bilan chiqqan aksiyadorlar, Bankning kuzatuv kengashi tomonidan taftish o‘tkazish haqida qaror qabul qilingunga qadar istalgan paytda, bu haqida yozma ravishda xabardor qilgan holda, o‘z talabnomalarini qaytarib olishga haqli hisoblanadi.

24. Rejadan tashqari taftish o‘tkazish to‘g‘risida qaror Bankning kuzatuv kengashi yig‘ilishida ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Rejadan tashqari taftish o‘tkazish haqida qaror Bank taftish komissiyasi (taftishchisi) nomiga yuboriladi va u unga ovoz bergan Bank kuzatuv kengashining barcha a’zolari tomonidan imzolanadi.

25. Rejadan tashqari o‘tkazilgan taftish natijalari Bank taftish komissiyasi (taftishchisi) tomonidan tuzilgan dalolatnama bilan rasmiylashtiriladi.

Agar rejadan tashqari taftish ushbu Nizomning 20-bandini “b” kichik bandiga muvofiq o‘tkazilgan bo‘lsa, taftish yakunlari yuzasidan tayyorlangan xulosa Bank aksiyadorlari umumiylig yig‘ilishi muhokamasiga, o‘rnatilgan tartibda, taqdim etiladi.

Rejadan tashqari taftish ushbu Nizomning 20-bandini “a”, “v” va “g” kichik bandlariga muvofiq o‘tkazilgan bo‘lsa, uning yakunlari yuzasidan tayyorlangan xulosa Bankning kuzatuv kengashiga, o‘rnatilgan tartibda, kiritiladi.

4-§. Bank taftish komissiyasi a'zolarining (taftishchisining) huquq va majburiyatlari

26. Bank taftish komissiyasi a'zolari (taftishchisi) o'z funksiyalarini to'liq bajarishlari uchun quyidagi huquqlarga ega:

- a) Bankning boshqarish organlari, ularning tarkibiy tuzilmalari rahbarlaridan taftish o'tkazish uchun zarur bo'lgan barcha hujjat, ma'lumot va materiallarni, ularni o'rganish Bank taftish komissiyasi (taftishchisi) funksiyalari va vakolatlariga muvofiq keladigan bo'lsa, olish [ko'rsatilgan hujjatlar ular so'ralgandan so'ng uch ish kun ichida Bank taftish komissiyasiga (taftishchisiga) taqdim etilishi lozim];
- b) Bank boshqaruvi va Bankning kuzatuv kengashi majlislarida maslahat ovozi bilan ishtirok etish;
- v) Bankning moliyaviy-xo'jalik va huquqiy faoliyatida kamchiliklar aniqlanganda yoki Bank manfaatlariga jiddiy tahdid vujudga kelganda, agar bu masalalar Bankning kuzatuv kengashida hal qilinishi lozim bo'lsa, Bankning kuzatuv kengashi yig'ilishini o'tkazishni talab qilish;
- g) Bankning moliyaviy-xo'jalik va huquqiy faoliyatida kamchiliklar aniqlanganda yoki Bank manfaatlariga jiddiy tahdid vujudga kelganda, agar bu masalalar Bank aksiyadorlari umumiyligi yig'ilishida hal qilinishi lozim bo'lsa, Bank aksiyadorlari umumiyligi navbatdan tashqari yig'ilishini chaqirish;
- d) Bank taftish komissiyasi (taftishchisi) vakolatidagi masalalar bo'yicha Bankning rahbar xodimlari va boshqa xodimlaridan o'z harakatlarini oqlash uchun dalil talab qilish;
- e) Bank shtatida bo'limgan mutaxassislarni taftish o'tkazishga shartnoma asosida jalgan qilish;
- yo) Bank rahbarlari va boshqa xodimlari tomonidan suiiste'mol qilish, Bank ichki normativ hujjatlariga zid harakatlar sodir etilganda, ularning javobgarligi haqida masalani Bankning boshqarish organlari va ularning tarkibiy tuzilmalari muhokamasiga kiritish.

27. Bank taftish komissiyasi a'zolarining (taftishchisining) majburiyatlari:

- a) taftish o'tkazish paytida taftish predmetiga taalluqli bo'lgan barcha hujjatlar va materiallarni sinchiklab o'rganish, o'tkazilgan taftish natijalarini xulosa, yozma hisobot, doklad, axborot shaklida Bank aksiyadorlari umumiyligi yig'ilishi, Bankning kuzatuv kengashi, Bank boshqaruviga o'z vaqtida ma'lum qilish;
- b) tijorat sirini saqlash, o'z funksiyalarini bajarish uchun foydalanishga berilgan va sirsaqlanadigan ma'lumotlarni e'lon qilmaslik.

5-§. Bank taftish komissiyasi a'zolarining (Bank taftishchisining) javobgarligi

28. Bank taftish komissiyasi a'zolari (taftishchisi) quyidagi hollarda O'zbekiston

Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar hisoblanadi:

- a) noto‘g‘ri xulosa berish;
- b) sir saqlanadigan ma’lumotlarni oshkor qilish.

Boshqaruv raisi

S.Normuxamedov